“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Turizm va madaniy meros vaziriligi
huzuridagi Madaniy meros agentligi
direktori o‘rinbosari

__________ Sh.Maxmudov

2022-yil ____ - sentabr

**O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi Xarid komissiyasining**

**6 -sonli BAYONI**

2022-yil 5 - sentabr Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:**

| | |
|---|---|
| Sh.Maxmudov | O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vaziriligi huzuridagi Madaniy meros agentligi direktori o‘rinbosari – Xarid komissiyasi o‘rinbosari |
| **Kotiblik qiluvchi** | |
| Q.Abdiraimov | Madaniy merosni asrashga doir ishlarni rejalashtirish va tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i bosh mutaxassisi – Xarid komissiyasi kotibi |
| **Ishtirok etdilar:** | |
| N.Kobilova | Iqtisodiy tahlil, moliya va buxgalteriya boshqarmasi boshlig‘i – a’zo |
| S.Anarbayev | Obektlardan foydalanish, raqamlashtirish va davlat-hususiy sheriklikni joriy etish boshqarmasi boshlig‘i – a’zo |
| T.Zaripov | Muzeylarni rivojlantirish, yodgorliklarni muzeylashtirish va Milliy muzey fondi davlat katologini yuritish boshqarmasi boshlig‘i – a’zo |
| B.Chinaliyev | Madaniy merosni asrashga doir ishlarni rejalashtirish va tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i – a’zo |
| B.Matchonov | Madaniy merosni asrashga doir ishlarni litsenziyalash, ruxsatnoma berish, ilmiy texnik nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i – a’zo |
| B.Haqqulov | Madaniy merosni asrashga doir ishlarni litsenziyalash, ruxsatnoma berish, ilmiy texnik nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari – a’zo |

**KUN TARTIBI:**
**Agentlik tomonidan**
**2022-yil 05-avgust kuni davlat xaridlari maxsus axborot portali (etender.uzex.uz)ga joylashtirilgan (Lot raqamlari –131710 va 131706 ) Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasining Buxoro suv ta'minoti muzeyi hamda Oybek uy-muzeylarida tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun berilgan e'lon natijalari bo'yicha kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish**

(Maxmudov, Abdiraimov, Haqqulov, Maxmudov)

Xarid komissiyasi davlat xaridlari natijalari bo'yicha kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun 2022-yil 5-sentabr kuni, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shox ko'chasi 107-B-uy manzilida, soat 17-00 da yig'ildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan komissiya raisi – madaniy meros agentligi direktori o'rinbosari Sh.Maxmudov so'zga chiqib xarid komissiyasi kotibi Q.Abdiraimovga so'z berdi.

Xarid komissiyasi kotibi - Q.Abdiraimov so'zga chiqib 2022-yil 5-avgust kuni davlat xaridlari maxsus axborot portali (etender.uzex.uz)ga joylashtirilgan (Lot raqamlari –131710 va 131706) tanlov natijasi bo'yicha quyidagilarni ma'lum qildi:

Elon qilingan Tanlovda "**EKSPERTLOYIHAKONSALTING**" **MChJ**, "**MADANIY MEROS OBYEKTLARINI ASRASH VA TURIZM HUDUDLARNING MASTER-REJALARI BO'YICHA LOYIHALASHTIRISH INSTITUTI**" hamda "**MEROS CHASHMASI PROJECT**" MChJlar ishtirok etganligi;

Mazkur Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan barcha tanlov hujjlari birma-bir Xarid komissiya a'zolari tomonidan tanlov hujjatlarida keltirilgan mezonlar, xarid qilish tartib-taomillari va Davlat xaridlarining asosiy prinsiplari asosida ko'rib chiqilganligi;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunning 62-moddasida "Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qilish" hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 99-bandiga muvofiq "Tanlashning istalgan ishtirokchisi dastlabki elektron bayonnoma e'lon qilinganidan so'ng davlat buyurtmachisiga tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha davlat xaridlarining elektron tizimi orqali e'tirozlar yuborishga haqli" ekanligi ma'lumot uchun keltirilganligi;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonunining (22.04.2021y.) 23-moddasiga ko'ra, ishtirokchi va uning affillangan shaxsi mazkur 131710 va 131706-sonli lotlarda ishtirok etmayotganligi;

Shuningdek, Xarid komissiya a'zolar hamda xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining affillangan shaxslari aniqlanmaganligi;

Xarid komissiyasining tanlov natijasi bo'yicha berilgan xulosalari asosida elektron axborot tizimi tomonidan rasmiylashtiriligan bayonnomasi 2022-yil 29-avgust

kuni davlat xaridlari maxsus axborot portali (etender.uzex.uz)ga muhokama uchun joylashtirilganligi;

Tanlov natijasi bo'yicha rasmiyalshtirilgan bayonnoma bo'yicha ikki ish kuni davomida ariza va shikoyatlar kelib tushmaganligi;

Ma'lumotlar **www.stat.uz** sahifasi orqali tekshirildi;

Xarid komissiyasi a'zolari Xarid komissiyasi kotibi tomonidan keltirilgan ma'lumotlarni inobat olib fikr va mulohazalarni birma-bir ko'rib chiqdi.

Xarid komissiyasining tanlov natijasi bo'yicha berilgan xulosalari asosida davlat xaridlari bo'yicha maxsus elektron axborot tizimi tomonidan rasmiylashtiriligan bayonnomasi bo'yicha ariza va shikoyatlar kelib tushmaganligini inobatga olib tanlov g'olibi etib belgilangan "MEROS CHASHMASI PROJECT" MChJ bilan o'rnatilgan tartib asosida shartnoma imzolanishi yuzasidan ovozga qo'yildi.

Ovozlar quyidagicha bo'ldi: rozilar – 100 foiz; qarshilar – 0 foiz; betaraflar – 0 foiz.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bildirilgan fikr-mulohazalardan so'ng, Xarid komissiyasi qaror qiladi:

1. O'tkazilgan tanlov natijalarini inobatga olib tanlov g'olibi etib belgilangan "KHANIA" MChJ bilan o'rnatilgan tartib asosida shartnoma imzolansin;

2. Imzolangan shartnoma asosida ijrochi "MEROS CHASHMASI PROJECT" MChJga oldindan 30 foiz bo'nak mablag'larini o'tkazib berilsin;

3. Ijrochi "MEROS CHASHMASI PROJECT" MChJ tomonidan ishab chqiladigan loyiha-smeta hujjatlari o'rnatilgan tartibda hamda tanlov shartlarida keltirilgan texnik tavsiflar asosida qabul qilish ishlari amalga oshirilsin.

Bayonni rasmiylashtirdi: ____________ Q.Abdiraimov

Tanlov komissiyasi a'zolari:

____________ N.Kobilova

____________ B.Matchanov

____________ T.Zaripov

____________ B.Chinaliyev

____________ S.Anarbayev

____________ B.Haqqulov

Davlat xizmatlari markazi

3616892

Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

# GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MEROS CHASHMASI PROJECT" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MEROS CHASHMASI PROJECT" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

15.10.2020 903590 ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 307822063

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Qo'yliq-3 34-uy,48-xonadon,

Guvohnoma: Toshkent shahri, Mirobod tumani, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

**2022-yil 5-avgust kuni davlat xaridlari maxsus axborot portali (etender.uzex.uz)ga joylashtirilgan (Lot raqami –131706) lot natijasi bo'yicha tuzilgan T-3 - sonli**

# LOYIHA ISHLARI SHARTNOMASI

2022 yil "06" 09 Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi **Madaniy meros agentligi** nomidan Nizom asosida ish yurutuvchi **B.Abdikarimov** (keyingi o'rinlarda **"Buyurtmachi"** deb yuritiladi) bir tomondan va **"Meros Chashmasi Project" MChJ** nomidan Nizom asosida ish yurituvchi **F.Usmanov** (keyingi o'rinlarda **"Loyihachi"** deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, (birgalikda "Tomonlar" deb yuritiladi). Amaldagi normativ hujjat talablari asosida quydagilar haqida ushbu shartnomani tuzdilar.

## 1. Shartnoma mavzusi

1.1 "Loyihachi", **"Oybek uy-muzeyi" obyektini tamirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab** chiqadi va mualliflik nazoratini olib boradi. "Buyurtmachi" esa haq to'laydi.

1.2. "Loyihachi" mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'ra **"Oybek uy-muzeyi" obyektini ta'mirlash-tiklash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha** loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etishdan avval ART (arxitektura-restavratsiya topshirig'i) ishi loyihasini "Buyurtmachi" kelishadi va imzolaydi.

## 2. Ishlarni bajarish muddati

2.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Loyihachi"ga dastlabki avansning 30% (foiz%) to'lovini amalga oshirilgan kundan boshlab, "Loyihachi" loyiha-smeta hujjatlarini **20 kun** muddat ichida "Buyurtmachi"ga tegishli dalolatnoma asosida topshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 3. Shartnoma bahosi

3.1. Shartnomaning umumiy qiymati mazkur shartnomaning ilovasiga binoan kelishilgan narx asosida QQS bilan **20 000 000,0 (yigirma million)** so'mni tashkil qiladi.

## 4. To'lov shartlari

4.1. To'lovlar "Loyihachi"ning hisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Mazkur shartnoma bo'yicha "Buyurtmachi" "Loyihachi"ga shartnoma bahosining **30%** (foiz%) miqdorida dastlabki avans summasini o'tkazib beradi, qolgan 70%(foiz%) mablag'ni "Loyihachi" tomonidan mazkur shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan ishlar to'laligicha bajarilganidan so'ng **5 (besh)** ish kun ichida to'lovlarni amalga oshiradi.

## 5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

-Ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazorat "Buyurtmachi" hamda "Buyurtmachi"ning Toshkent shahar Madaniy meros boshqarmasi o'rnatish;

-mazkur shartnomada qayd etilgan majburiyatlarga to'liq rioya etilishini talab qilish;

-shartnomada ko'rsatilgan muddatda loyiha-smeta hujjatlarini topshirishni talab qilish.

5.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda ishlarni bajarish uchun tegishli hujjatlarni dalolatnoma asosida "Loyihachi"ga berish;

Shartnomada belgilangan muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun "Loyihachi"ga haq to'lash;

5.3. "Loyihachi"ning huquqlari:

-shartnoma shartlariga to'liq rioya etilishini talab qilish;

-loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida zarurat bo'lsa, ayrim maxsus qismlarni bajarish uchun yordamchi mutaxassislar jalb qilish.

5.4. "Loyihachi"ning majburiyatlari:

Mazkur shartnomaga asosan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shartnomaning 2.1-bandida belgilangan muddatda "Buyurtmachi"ga topshirish;

-"Buyurtmachi"ning roziligisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik;

-ishni "Buyurtmachi"ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi;

-"Loyihachi" ko'rsatib o'tilgan ishlarni o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar orqali "Madaniy meros ob'yektlarini loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash haqida"gi Shaharsozlik norma qoidalari va qo'llanmalari (ShNQ), Madaniy meros yodgorliklarini saqlash, ta'mirlash, tiklash uchun me'yoriy smeta normalari hamda ish turlarini baholash hujjati (VSRSN-2017) hamda mazkur shartnomaga asoslanib to'liq hajmda va muddatlarda bajaradi;

-loyiha mualliflik nazoratini amalga oshiradi

## 6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

6.1. Ishlar tugagandan so'ng "Loyihachi" "Buyurtmachi"ga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan 3 nusxada loyiha-smeta hujjatlari to'plamini topshiradi.

6.2. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish davomida "Buyurtmachi"ning asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma asosida tuziladi.

6.3. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtalishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.4. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda "Loyihachi" ularni beg'araz bartaraf etadi.

## 7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. "Loyihachi" loyiha-smeta hujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek, tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida va boshlang'ich narhlarni noto'g'ri shakllantirilganligi bo'yicha aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan harajatlarni qoplaydi.

7.2. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda "Loyihachi" "Buyurtmachi"ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. "Loyihachi" loyiha-smeta hujjatlarini o'z vaqtida topshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50%dan oshmasligi lozim.

"Buyurtmachi" tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmaganligi uchun "Loyihachi" "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50%dan oshmasligi kerak. Penya to'lash "Loyihachi"ni ishlarni bajarishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.4. Agar bajarilgan ishlar ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, "Buyurtmachi" "Loyihachi"dan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20% miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.5. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga shartnomaning 7-bandida nazarda tutilgan javobgarlikdan tashqari boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

7.7. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 8. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors-major)

8.1. Agar tomonlar majburiyatni qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, harbiy harakatlar va bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat keltirib chiqargan oqibat hukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

8.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, "Buyurtmachi" va "Loyihachi" ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muhokama qiladilar. Agar tomonlar bir oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

9.1. Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

9.2. Mazkur shartnomaning muddati tugashiga qaramay, loyihalashtirilgan ob'ekt tegishli davlat organlari tekshiruvidan, qayta o'lchovi va boshqa nazorat tartiblaridan o'tmagunga qadar tomonlar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

## 10. Nizolarni hal etish tartibi

10.1. Shartnoma tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek, keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan bahslar o'zaro muhokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda begilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

## 11. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish tartibi

11.1.Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

11.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga ko'ra, yetkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

11.3. "Loyihachi"ning aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi shartnomada belgilangan muddatdan kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, "Buyurtmachi" shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

11.4. "Loyihachi"ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyiha ishlari "Buyurtmachi" tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, "Buyurtmachi" loyihalash ishlarining haqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, "Loyihachi" shartnomani bekor qilishga haqli.

11.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

## 12. Shartnomaning alohida shartlari

12.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

12.2. "Buyurtmachi" bilan "Loyihachi" o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar kiritish orkali yozma ravishda tasdiqlashlari kerak.

12.3. "Loyihachi" loyihaga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini "Buyurtmachi"ning yozma ruxsatisiz, biron-bir uchinchi tomonga berish huquqiga ega bo'lmaydi.

12.4. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

12.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

12.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 3 nusxada tuzildi.

### 13. Tomonlarning imzolari, bank rekvizitlari va pochta manzillari:

**BUYURTMACHI**

**Madaniy meros agentligi**

**Manzil:** Toshkent shahar, A.Temur shox ko'ch, 107-uy
**x/r** 1000 1086 0262 6670 8220 0245 002
**INN:** 308 779 353
Uz.Res.Moliya vazirligi g'aznachiligi
**x/r** 2340 2000 3001 0000 1010
Uz.Res.Markaziy bank
MFO 00014 INN 201122919

_________________ **B.Abdikarimov**

**LOYIHACHI**

**"Meros Chashmasi Project" MChJ**

**Manzil:** Toshkent shahar, Mirobod tumani, Qo'yliq 3-mave, 34-uy
**x/r** 2020 8000 9052 9472 1001

**INN:** 307822063, **OKED:** 71110
**MFO:** 00980

Tel_____________

_________________ **E.Usmanov**

**XULOSA**

Shartnoma mazmuni huquqiy ekspertiza etilganda u O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-13, 24-34 - moddalari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353-357, 364-366-moddalari va O'zbekiston Respublikasida harakatdagi qonunlariga to'liq javob berishi tasdiqlandi.

Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi, tomonlar nizolari, ularning kelishuv orqali yoki iqtisodiy sudida hal qilinishi, hisob-kitob va boshqa shartlar ko'rsatilgan.

**Yuridik bo'lim boshlig'i v.v.b**

_________________ **A.Axmedov**

2022 yil «06» 09 № 1-3 -sonli
Loyiha-smeta ishlarini ishlab chiqish
shartnomasiga
*1-sonli Ilova*

**"Oybek uy-muzeyi" obyektini ta'mirlash-tiklash uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha shartnoma qiymatini kelishish bayonnomasi**

Biz imzo chekuvchilar Buyurtmachi **"Madaniy meros agentligi"** nomidan Nizom asosida ish yurituchi **B.Abdikarimov** bir tomondan va Loyihachi **"Meros Chashmasi Project" MChJ** ikkinchi tomondan nomidan Nizom asosida ish yurituvchi **F.Usmonov** loyiha-smeta hujjatlari uchun quyidagi narhlarni kelishib tasdiqlaymiz.

Ushbu kelishuv bayonnoma "Buyurtmachi" va "Loyihachi" o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar va to'lovlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Jami: 20 000 000,0 (yigirma million) so'm.**

| BUYURTMACHI | LOYIHACHI |
|---|---|
| **"Madaniy meros agentligi"** | **"Meros Chashmasi Project" MChJ** |
| ______________ **B.Abdikarimov** | ______________ **F.Usmonov** |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI HUZURIDAGI MADANIY MEROS AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHAR MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT MEROS CHASHMASI PROJECT

2022 yil « 06 » sentabrdagi № T-3-sonli
Loyiha-smeta ishlarini ishlab chiqish
shartnomasiga

***2-sonli Ilova***

## ДЕФЕКТНЫЙ АКТ

**на реставрационно-восстановительные работы (текущий ремонт) по объекту:
Дом-музей Ойбека в г Ташкенте**

| № п.п. | Наименование работ | Единица измерения | Количество |
|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 |
| | **ЗДАНИЕ -1** | | |
| 1 | Демонтаж неудовлетворительных водосливных лотков по периметру крыши | пм | 63 |
| 2 | Установка новых водосборных лотков из прочной оцинкованной стали толщ-0,06мм. 63,0 п.м хо,4 | пм | 63 |
| 3 | Установка водосливной трубы | пм | 5,2 |
| 4 | Ремонта существующих водосливных труб. | пм | 2,1 |
| 5 | Устройство нового водосливного лотка из оцинкованний стали толщ-0,06мм е=1,0 м. 1,0х0,4 | пм | 1 |
| 6 | Обшивка стены боковых стен и чердачной стены оцинковкой | м2 | 13,1 |
| 7 | Разборка неудовлетворительной фанерной обшивки карнизов | м2 | 44,1 |
| 8 | Устройство новой фанерной обшивки карнизов и верхний части веранды | м2 | 44,1 |
| 9 | Также. Закрепление фанерной обшивки рейками | м2 | 12,14 |
| 10 | Установка металлических сеток на водосливных лотках | м2 | 1 |
| 11 | Очистка вручную поверхностей деревянных спаренных оконных блоков от многослойной масляной покраски | м2 | 36,8 |
| 12 | Тоже, с оконных и древных одинарных | м2 | 20,5 |
| 13 | Антисептированние очищенных деревянных поверхностей оконных и деревных блоков | м2 | 57,3 |
| 14 | Покраска масляной краской оконных и древных блоков | м2 | 57,3 |
| 15 | Очистка вручную резных дверных блоков от пыли копоти и грязи (резьба одноплановая) | м2 | 30,8 |
| 16 | Антисептированние поверхностей резных деревных блоков | м2 | 30,8 |
| 17 | Покрытие поверхностей разных древных блоков бесцветных лаком за 2 раза | м2 | 30,8 |
| 18 | Покраска масляной краской поверхностей фанерной обшивки козырьковой части кровли цвет по аналоги существующ | м2 | 56,24 |
| 19 | Очистка стен дворового фасада и стен дарвозахоны от покраски (водоэмульсионка) | м2 | 108 |
| 20 | Очистка поверхностей ограждающей двор стенки. | м2 | 99,5 |
| 21 | Шпаклевка фасадных стен средством "разбан" | м2 | 207,5 |
| 22 | Покраска стен возмульсион краской, Цвет бежевый | м2 | 207,5 |
| 23 | Очистка цоколей от ремонтной многослойной штукатурки | м2 | 45,7 |
| 24 | Штукатурки цоколей цементным раствором | м2 | 45,7 |
| 25 | Понижение верхних частей входных ступеней и входного пандуса покрытых брусчаткой | м2 | 40,6 |
| 26 | Также восстановления выстилки брусчасткой по цементной стяжке | м2 | 40,6 |
| 27 | Разборка неудовлетворительных наборных из брусьев ступеней лестницы на балкону | м3 | 0,06 |
| 28 | Установка дощатых цельных ступеней лестницы | м2 | 2 |
| 29 | Антисептирование и покраска ступеней лестницы бесветных лаком за 2 раза. | м2 | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 30 | Замена ленолеума площадки перед болконом | м2 | 5,2 |
| 31 | Ремонт кирпичной кладки столбиков жж.кирпича на, сложы. Растворе | м3 | 0,13 |
| 32 | Восстановление бетонных покрытий кирпичных столбиков | м3 | 0,06 |
| 33 | Очистка вручную кирпичной клалки фасадной стены от пыли и грязи | м2 | 38,6 |
| 34 | Вынос стройнусора вручную | м3 | 19,8 |
| 35 | Ручная погрузке строй мусора на автосредства и вывоз автосредствами мусора на расстояние | м3 | 19,8 |
| | **ЗДАНИЕ -2** | | |
| 36 | Очистка фасадной стены от ремонтной покраски | м2 | 104,3 |
| 37 | Шпатлевка фасадной стены средством "Родбан" | м2 | 104,3 |
| 38 | Покраски фасадной стены водоэмульсионный краской | м2 | 104,3 |
| 39 | Очистка деревянных поверхностей спаренных оконных и древных блоков | м2 | 79,5 |
| 40 | Антисептирование деревянных поверхностей блоков | м2 | 79,5 |
| 41 | Покраски масляными красками блоков | м2 | 79,5 |
| 42 | Разборка леномулевного покрытия балкона | м2 | 3,4 |
| 43 | Покраска металлических элементов ограждения балкона | м2 | 4,3 |
| 44 | Покраска металлической обшивки | м2 | 3,4 |
| 45 | Настил пола балкона ленолеумом | м2 | 3,4 |
| 46 | Очистка поверхностей ступеней входной части | м2 | 10,15 |
| 47 | Очистка цоколей от ремонтных покрасок и штукатурок | м2 | 15,3 |
| 48 | Штукатурки цоколей цементным раствором | м2 | 15,3 |
| 49 | Бетонная стяжка входных ступеней | м2 | 10,15 |
| 50 | Очистка выпученных участков штукатурки внутренней стены помещения | м2 | 11,6 |
| 51 | Очистка стены помещения от водоэмульсионной покраски | м2 | 36,4 |
| 52 | Штукатурки очищенной поверхности стены | м2 | 11,6 |
| 53 | Шпаклевка стен комнаты | м2 | 48 |
| 54 | Покраска водоэмульсионной краской стен. Цвет по анологи с существующем | м2 | 48 |
| 55 | Цементная стяжка подоконников | м2 | 4,5 |
| 56 | Вынос вручную строймусора с территории на носилках | м3 | 0,8 |
| 57 | Ручная погрузка строймусора на автосредства | м3 | 0,8 |
| 58 | Вывоз строймусора автосредствами на расстояние | м3 | 0,8 |
| 59 | Установка и разборка металлических хомтовых лесов по фасаду | м2 | 141,7 |

Директор Дома-музея Айбека О.Б.Ташмухамедова